



Theoretical foundations of teaching students to work with media texts

Khilola OTAKHONOVA¹

Uzbekistan State World Languages University

ARTICLE INFO

Article history:

Received October 2025

Received in revised form 5
October 2025

Accepted 10 November 2025

Available online 25

November 2025

Keywords:

media text,
media-based learning,
critical thinking,
multimodal text,
digital literacy,
media culture,
pedagogical technologies.

ABSTRACT

This article examines the theoretical and methodological foundations of teaching students to work with media texts. It analyzes the linguistic, semiotic, and pragmatic features of media texts as well as their communicative role in educational settings. The paper substantiates pedagogical mechanisms for developing digital literacy, critical thinking, and the ability to interpret multimodal texts within the learning process. Constructivist approaches, competence-based education, and media culture theories serve as the conceptual basis of the study. The article also offers effective methods for enhancing university students' skills in analyzing and using media texts in academic and professional contexts.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss10/S-pp116-122>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Talabalarni mediamatnlar bilan ishlashga o'rgatishning nazariy asoslari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

mediamatn,
medialar orqali o'qitish,
tanqidiy fikrlash,
multimodal matn,
raqamli savodxonlik,
mediamadaniyat,
pedagogik texnologiyalar.

Ushbu maqolada talabalarni mediamatnlar bilan ishlashga o'rgatishning nazariy-metodik asoslari yoritiladi. Mediamatnlarning lingvistik, semiotik va pragmatik xususiyatlari, ularning ta'lim jarayonidagi kommunikativ ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, raqamli savodxonlik, medialar orqali tanqidiy fikrlashni shakllantirish, multimodal matnlarni tahlil qilish va ularni o'qitish jarayoniga integratsiya qilishning pedagogik mexanizmlari asoslab beriladi. Tadqiqotda konstruktivistik yondashuv, kompetensiyaga asoslangan ta'lim va mediamadaniyat nazariyalari tayanch konsept sifatida qo'llangan. Maqola oliy ta'lim talabalari uchun mediamatnlar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali metodlarini taklif qiladi.

¹ Senior Lecturer, Uzbekistan State World Languages University.

Теоретические основы обучения студентов работе с медиатекстами

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

медиатекст,
медиаобразование,
критическое мышление,
мультимодальный текст,
цифровая грамотность,
медиакультура,
педагогические
технологии.

В данной статье раскрываются теоретико-методические основы обучения студентов работе с медиатекстами. Анализируются лингвистические, семиотические и прагматические особенности медиатекстов, а также их коммуникативная значимость в образовательном процессе. Обосновываются педагогические механизмы формирования цифровой грамотности, критического мышления и навыков анализа мультимодальных текстов. В качестве концептуальной базы используются конструктивистский подход, компетентностная модель обучения и теория медиакультуры. Статья предлагает эффективные методы развития у студентов высшей школы навыков работы с медиатекстами.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, xorijiy tillarni o'rganish jarayonini keng jamoatchilik o'rtasida samarali tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2021-yil 27-avgustda 546-sonli "Foreign languages" teleradiokanalini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilingan. Mazkur qarorda belgilangan vazifalar bevosita ushbu dissertatsiya tadqiqotining mazmun-mohiyatiga uyg'un bo'lib, xorijiy tillarni o'qitish, o'rganish va ommalashtirish tizimini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy asoslarni o'zida mujassam etadi. Qarorda quyidagi ustuvor yo'nalishlar va vazifalar aks etgan:

1. aholi, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlod o'rtasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish, til bilishning imkoniyatlarini targ'ib qilish orqali xorijiy tillarni o'rganishga qiziqish uyg'otish;

2. o'quvchi / talabalarning xorijiy tillarni puxta o'zlashtirishi, tilning asosiy ko'nikmalarini rivojlantirishga ko'maklashuvchi ilmiy-ommabop, hujjatli, badiiy filmlar, bolalar uchun mo'ljallangan xorijiy tildagi televizion asarlar va boshqa telemahsulotlarni namoyish etib borish;

3. efir orqali til o'rgatuvchi ko'rsatuvlarga malakali mutaxassislarni jalb qilish hamda ular ishtirokida mahorat teledarslari, videorolik, o'yin, ko'ngilochar ko'rsatuv, filmlar va boshqa o'rgatuvchi kontentlarni yaratish va efirga uzatish;

4. davlat tilidan xorijiy tillarga va xorijiy tillardan davlat tiliga professional tarjima qilishda yutuqlarga erishgan mutaxassislarning ilg'or tajribalarini targ'ib qilish;

5. xorijiy tillarni o'qitishning xalqaro tan olingan dastur va darsliklari ta'limning barcha bosqichlarida joriy etilishini izchil yoritib borish hamda o'qituvchilarning zamonaviy til o'qitish ko'nikmalarini rivojlantirishga ko'maklashish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5117-son qarori va unga muvofiq qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining 546-son qarori xorijiy tillarni o'rganish jarayonini ommalashtirishda mediamatnlarning ahamiyatini yangi bosqichga olib chiqdi. Mazkur

qarorlar asosida tashkil etilgan “Foreign languages” teleradiokanali xorijiy tillarni o‘qitish, o‘rganish va targ‘ib qilish jarayonida mediamatnning didaktik, kommunikativ va madaniy funksiyalarini yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Mediamatnlar orqali xorijiy til o‘rganuvchilar uchun yangi axborot maydoni shakllanib, ularning til kompetensiyasini oshirish, madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini kengaytirish va ijodiy tafakkurni rivojlantirish imkoniyati yaratiladi. Shu tariqa, mediamatnning ta’limiy va tarbiyaviy salohiyati xorijiy tillarni o‘rganish tizimining ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Natijada, mazkur qarorlar nafaqat xorijiy tillarni o‘rganish jarayonini takomillashtirishga, balki mediamatn madaniyatini rivojlantirish orqali ta’lim sohasida innovatsion yondashuvlarni joriy etishga zamin yaratmoqda. “Mediatmatn” atamasi XX asrning 90-yillarida ingliz tilidagi ilmiy adabiyotlarda paydo bo‘lgan bo‘lib, bu tushuncha T. Van Deyk, A. Bell, R. Fowler, M. Montgomery va boshqa bir qator xorijiy olimlarning asarlarida batafsil o‘rganilgan.

Bu masalaga e’tibor qaratgan rus olimlari orasida S.I. Bernshteyn, M.V. Zarva, G.Ya. Solganik, S.I. Treskova, B.V. Krivenko, A.A. Tertychnyy, T.G. Dobrosklonskaya va boshqalarni tilga olish mumkin. An’anaviy lingvistika fanida “matn” “mazmuniy bog‘liqlik orqali birlashgan belgilar ketma-ketligi bo‘lib, uning asosiy xususiyatlari izchillik va yaxlitlikdir” deb ta’riflanadi. Bunda bosma yoki og‘zaki matn haqida gap ketganda, faqat so‘z (verbal) belgilar ketma-ketligi nazarda tutiladi. Ammo mediatmatn bu chegaradan chiqib, faqat verbal belgilar bilan cheklanmaydi. U turli xil, notekis belgilar tizimidan tashkil topgan bo‘ladi – ya’ni unda matn, rasm, tovush, video, dizayn unsurlari kabi ko‘p kodli elementlar ishtirok etadi. Shuning uchun lingvistika fanida bunday matnlar “polikodli matnlar” (ya’ni bir necha belgilar tizimini o‘zida birlashtirgan matnlar) deb ataladi.

Mediamatn – bu o‘qitish va muloqot jarayonida qo‘llaniladigan ko‘p kodli kommunikativ birlik bo‘lib, u verbal (matnli), vizual (tasvir, rang, kadr), akustik (ovoz, musiqiy fon), grafik va dinamik elementlarning uyg‘unligida ma’no yaratadi. Mazkur atama bir vaqtning o‘zida ham tilshunoslik, ham pedagogika, ham madaniyatshunoslikda faol ishlatiladi. Ko‘pchilik tadqiqotchilar quyidagi fikrga qo‘shiladilar: ommaviy kommunikatsiya sohasida faoliyat yuritayotgan matn (ya’ni ommaviy axborot vositalarida ishlatiladigan matn) faqat so‘z shaklidagi ifoda bilan cheklanib qolmay, balki u axborot uzatish vositasining mediyaviy xususiyatlariga qarab yangi belgilar, yangi xususiyatlarga ega bo‘ladi. Masalan, televideniya matn – bu verbal belgilar (so‘zlar, so‘z birlikmalari, gaplar), videoqator va tovushli hamrohlik (audio)ning uyg‘un birligidan iborat murakkab tizimdir. Bu uch komponent bir vaqtning o‘zida yagona butunlikda, murakkab kommunikativ organizm sifatida ishlaydi. Ko‘plab olimlarning fikricha, mediamatn – bu verbal va mediyaviy belgilar majmuidir.

Ingliz tilshunosi Allan Bell o‘zining “Approaches to Media Discourse” (“Mediamuloqotga yondashuvlar”) nomli kitobida shunday yozadi:

“Mediamatn ta’riflari an’anaviy ‘qog‘ozda bosilgan so‘zlar’ haqidagi tushunchadan ancha uzoqlashdi. Hozir bu atama nutq, musiqa, tovush effektlari, tasvir va shunga o‘xshash boshqa vositalarni ham o‘z ichiga olgan kengroq ma’noda ishlatiladi. Mediamatn o‘zining yaratilishida foydalaniladigan texnologiyani ham aks ettiradi”. Demak, muallifning ta’kidlashicha, “mediamatn” tushunchasi oddiy yozma matndan ancha kengroq bo‘lib, u nutq, tovush, vizual tasvirlar va boshqa multimodal elementlarni ham o‘z ichiga oladi. G.Ya. Solganik esa mediamatnni ommaviy axborot vositalari orqali uzatiladigan va keng ommaga mo‘ljallangan matn turi deb ta’riflaydi.

“Mediamatn” tushunchasining paydo bo‘lishi va qo‘llanilishi tadqiqotchilarning tilning ommaviy kommunikatsiya sharoitida qanday ishlashini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi bilan bog‘liq. T.G. Dobrosklonskayaning fikriga ko‘ra, ommaviy kommunikatsiya – bu korporativ tarzda ishlab chiqilgan axborotni OAV vositasida keng, turfa (geterogen) auditoriyaga muntazam yetkazish jarayonidir. Shu bilan birga, OAV (ommaviy axborot vositalari)ni ommaviy kommunikatsiya bilan aynanlashtirish noto‘g‘ri. Chunki OAV – bu “axborotni keng miqyosda tarqatishda ishtirok etuvchi texnik vositalar, jamoat tashkilotlari va inson resurslarining majmui”.

E.A. Nojin fikriga ko‘ra, ommaviy kommunikatsiyaning asosiy xususiyatlari quyidagilardir:

- u axborotni tarqatish jarayonidir;
- bu jarayon ijtimoiy xarakterga ega;
- u turli texnik vositalar yordamida amalga oshiriladi;
- auditoriya massaviy (keng ko‘lamli) xarakterga ega.

Bu xususiyatlar orasida mediamatnlarning ommaviy auditoriyaga yo‘naltirilganligi alohida ahamiyatga ega. A.N. Bogomolov ta‘kidlaganidek, kommunikatsiyaning massaviyligi quyidagi belgilarni belgilab beradi: auditoriyaning katta hajmda va tasodifiy shakllanishi, bevosita teskari aloqa yo‘qligi, kommunikatsiyaning biryo‘nalishli xarakteri. M.V. Zarva esa shunday deydi: auditoriyaning turli etnik, ijtimoiy, jinsiy, diniy va yosh guruhlarga mansubligi ommaviy kommunikatsiya sharoitida aloqaning o‘ziga xosligini belgilab beradi. Shunday qilib, shubhasiz, auditoriyaning ommaviyligi mediamatnlarning mazmuni va ularning til xususiyatlariga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, ommaviy kommunikatsiyaning texnik vositalar orqali amalga oshirilishi ham katta ahamiyatga ega. Bu holat kommunikatsiya kanalining o‘ziga xos rolini belgilaydi, chunki kanal-mediamatnning yaratilishi, mazmuni, ishlash shakli va qabul qilinishiga ta‘sir ko‘rsatadi. Tarqatish kanaliga qarab, quyidagi mediamatn turlari ajratiladi:

- bosma matnlar (gazeta, jurnal, plakatlar va h.k.),
- radio matnlari,
- televideniye matnlari,
- internet mediamatnlari.

Zamonaviy ta‘lim tizimida kommunikativ yondashuv, raqamli texnologiyalar va ommaviy axborot vositalarining integratsiyasi o‘qitish jarayonining muhim tarkibiga aylandi. Til o‘qitishning samaradorligi endilikda faqat grammatik va leksik ko‘nikmalarni egallash bilan emas, balki madaniyatlararo muloqotga tayyor shaxsni rivojlantirish bilan o‘lchanadi. Bu jarayonda mediamatn tushunchasi asosiy metodik kategoriya sifatida alohida o‘rin egallaydi.

MDH tadqiqotchilar T.Dobrosklonskaya, O.Fedorova mediamatnni “axborot, ta‘sir va madaniy qadriyatlarni yetkazishga xizmat qiluvchi ko‘p modallilikka ega tizim” deb talqin qiladilar. Demak, mediamatnning asosiy belgilari:

- ko‘p kodlilik (multimodallik) – so‘z, tasvir, tovush, grafika, ritmning
- uyg‘unligi;
- interaktivlik – muloqot ishtirokchilarining faol pozitsiyasi;
- madaniy shartlilik – matn ma‘nosi muayyan madaniy kontekstda anglanadi;
- aksiologik komponent – mediamatn ma‘lum qadriyatlarni singdiradi.

Pedagogik nuqtai nazardan, mediamatn – bu talaba uchun autentik, kommunikativ muhitni yaratadigan vositadir. U orqali til o'rganish real axborot oqimi bilan integratsiyalanadi, bu esa tilni tabiiy kontekstda idrok etishga yordam beradi.

Ko'p kodlilik – mediamatnning eng muhim semiotik xususiyatlaridan biridir. Bu tushuncha G. Kress tomonidan ilgari surilgan “multimodal diskurs” nazariyasida chuqur asoslangan. Olim fikricha, har qanday zamonaviy media matn ma'no yaratishda bir nechta modallar – verbal (so'z), vizual (tasvir, rang), akustik (ovoz), grafik (shrift, belgilar), va dinamik (ritm, harakat) – tizimli tarzda uyg'unlashadi.

Ko'p kodlilik mediamatnni o'qitish jarayonida murakkab, ammo samarali vositaga aylantiradi. T. Dobrosklonskaya ta'kidlaganidek, bunday tekstlar “axborot, estetik va emotsional ma'noni bir vaqtda yetkazish imkoniga ega bo'lgan polikod tizimdir”. Ingliz tili ta'limida bu yondashuv talabalarga so'zning ma'nosini tasvir va tovush orqali mustahkamlash, ya'ni kontekstual idrokni kuchaytirish imkonini beradi. Masalan, yangilik reportajidagi matnli sarlavha, vizual tasvir va diktator ovozi birgalikda bitta semantik maydonni hosil qiladi. Shunday qilib, G. Kress ta'kidlaganidek, “ko'p kodlilik nafaqat media estetikasi, balki yangi savodxonlikning (new literacy) asosi hamdir”.

Interaktivlik – mediamatnning kommunikativ xususiyati bo'lib, unda tomoshabin, talaba yoki foydalanuvchi faol ishtirokchiga aylanadi. D. Buckingham fikriga ko'ra, zamonaviy media talabani passiv qabul qiluvchi emas, balki “mazmunni qayta talqin qiluvchi, sharhlovchi va baholovchi subyekt” sifatida shakllantiradi. E. Baranova ham interaktivlikni “mediamatnning qayta tuzilishga, munozaraga yoki javobga undovchi semantik ochiqligi” deb izohlaydi. Fikrimizcha, bu jihat ingliz tilini o'qitishda ayniqsa muhim, chunki talaba dars jarayonida axborot qabul qiluvchi emas, kommunikatsiya ishtirokchisi sifatida faol pozitsiyada bo'ladi.

Madaniy shartlilik mediamatnning mazmuniy mohiyatini belgilovchi asosiy komponentlardan biridir. Har bir media matn ma'lum madaniy kontekstda yaratiladi va o'sha kontekst doirasida talqin qilinadi. G. Kress bu jarayonni “kontekstual ma'no yasash” (meaning making) deb ataydi. Masalan, ingliz tilidagi yangilik mediamatni o'zida G'arb jamiyati qadriyatlari, siyosiy ideallari va axborot uzatish an'analarini mujassam etadi. Uni o'zbek auditoriyasi tomonidan qabul qilishda esa madaniy filtr paydo bo'ladi. Shu sababli, ingliz tili o'qituvchisi mediamatnni tahlil etishda talabalarni madaniyatlararo farqlarni tushunishga, konnotativ ma'nolarni anglashga yo'naltirishi zarur.

T. Dobrosklonskaya bu jihatni “madaniy semiotika” deb atab, har bir mediamatn “muayyan madaniy makonning ramziy modeli” ekanini ta'kidlaydi. Shunday qilib, madaniy shartlilik talabalarga til o'rganish jarayonida xorijiy madaniyatni qiyosiy idrok etish imkonini beradi.

Aksiologik jihat esa mediamatn orqali ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar tizimini uzatishni anglatadi. N. Fairclough mediamatnni “hokimiyat va ideologiya ifodasi” sifatida ko'radi – ya'ni har qanday media xabarda ma'lum baho, munosabat yoki qadriyat yashiringan bo'ladi. Ye.I. Shevarshinova ham shu fikrni davom ettirib, ingliz tilidagi video mediamatnlar talabalarga madaniyatlararo qadriyatlarni solishtirish, ularni tahlil qilish va o'z munosabatini rivojlantirish imkonini beradi, deya ta'kidlaydi. Bu jihat til o'qitish jarayonida nafaqat axborot, balki tarbiyaviy ta'sir mexanizmini ham yuzaga keltiradi. Ye.A. Baranova va I.H. Tolmachova ta'kidlashicha, aksiologik komponent talabalarda axborot manbalariga nisbatan mas'uliyatli yondashuv, axloqiy pozitsiyani rivojlantirish va media axloqini rivojlantirishga yordam beradi.

Demak, mediamatnning ushbu to'rtta belgisi – ko'p kodlilik, interaktivlik, madaniy shartlilik va aksiologik komponent – birgalikda uni zamonaviy ta'lim uchun fanlararo va ko'p funksiyali pedagogik vositaga aylantiradi. Bu jihatlar ingliz tili o'qitishda til kompetensiyasi bilan bir qatorda, madaniy, axborot va axloqiy kompetensiyalarni ham rivojlantirish imkonini beradi.

Ye.I. Shevarshinovaning nomzodlik dissertatsiyasi ingliz tili ta'limida madaniyatlararo kompetensiyani video mediamatnlar yordamida rivojlantirish masalasiga bag'ishlangan. Muallifning asosiy g'oyasi – til o'rganish jarayonida mediamatnlar orqali nafaqat lingvistik, balki madaniy va kommunikativ kompetensiyalarni ham rivojlantirish mumkinligini ta'kidlagan. U mediamatnni o'quv jarayonida ishlatishning bosqichma-bosqich metodik modelini ishlab chiqqan (motivatsiya, tahlil, refleksiya bosqichlari). Bu yondashuv talabalarni madaniy jihatdan sezgir pedagoglar sifatida tayyorlashga xizmat qiladi.

Ye.A. Baranova mediamatnni lingvistik tahlil obyekti sifatida o'rganadi. U mediamatnning leksik, sintaktik va pragmatik xususiyatlarini tahlil qilib, uning nutq janri va uslubiy darajasini belgilaydi. Muallifga ko'ra, mediamatn oddiy matndan farqli ravishda ko'p modalli (multimodal) tizimdir, unda so'z bilan bir qatorda tasvir, rang, ovoz va kompozitsiya semantik ma'no yaratadi.

Bu fikr ingliz tili darslarida, ayniqsa, til birliklarini vizual kontekstda tushuntirishda juda muhimdir.

T. Dobrosklonskaya o'zining “Medialingvistika” asarida mediamatnni til va jamiyat o'rtasidagi vositachi tizim sifatida izohlaydi. U mediating discourse tushunchasini ilgari suradi, ya'ni mediamatnlar til, mafkura va madaniyat o'rtasidagi ko'prikdir. Muallifning fikricha, o'qituvchilar mediamatnni til o'rganish bilan bir qatorda, axborot tanqidiyligini rivojlantirish vositasi sifatida ham qo'llashlari lozim.

O.A. Fedorova televideniyeidagi mediamatnning strukturaviy-semantik modelini ishlab chiqqan. Unga ko'ra, televideniyeidagi mediamatnning beshta darajasi mavjud:

- Kadrli vizual qatlam;
- Tovush qatlam (intonatsiya, fon);
- Nutq (diktir, boshlovchi);
- Grafika (sarlavha, ekran belgilar);
- Kontekst (mazmun, ideya, tahririy pozitsiya).

Ushbu model ingliz tili o'qitish jarayonida video materiallar bilan ishlashni metodik asosga qo'yadi.

Britaniyalik olim D.Buckingham “Media Education” asarida media ta'limni demokratik, tanqidiy fikrlovchi shaxsni rivojlantirish vositasi sifatida talqin qiladi. U mediamatnni o'qitishda uch asosiy tamoyilni ilgari suradi:

- critical analysis – mediamatnni tahlil qilish;
- production – media yaratish jarayonida ishtirok etish;
- reflection – talaba o'z pozitsiyasini baholashi.

N. Fairclough o'zining “Media Discourse” asarida mediamatnni kritik diskurs tahlili (CDA) nuqtayi nazaridan o'rganadi. U media tilini jamiyatdagi hokimiyat, mafkura va identitet bilan bog'laydi. Bu yondashuv ingliz tili o'qitishda talabalarni axborotni tanqidiy qabul qilishga, manipulyativ til usullarini anglashga o'rgatadi.

W.J. Potterning “Theory of Media Literacy” asari mediamatnni idrok etish jarayonini kognitiv model asosida tushuntiradi. Unga ko'ra, mediamatn bilan ishlovchi shaxs “filtrlovchi ong”ga ega bo'lishi kerak, ya'ni axborotni saralash, baholash va anglash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Bu fikr talabalar uchun juda muhim, chunki ular talabalarda axborot tanlash va tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantirishlari lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Potter, W. J. Media Literacy. – 8th ed. – Thousand Oaks: SAGE Publications, 2019. – 496 p.
2. Buckingham, D. Media Education: Literacy, Learning and Contemporary Culture. – Cambridge: Polity Press, 2003. – 324 p.
3. Kress, G., van Leeuwen, T. Multimodal Discourse: The Modes and Media of Contemporary Communication. – London: Arnold, 2001. – 152 p.
4. Jenkins, H. Convergence Culture: Where Old and New Media Collide. – New York: New York University Press, 2006. – 308 p.
5. Bazalgette, C. Media Education: A Kit for Teachers, Students, Parents and Professionals. – London: BFI Publishing, 1995. – 210 p.
6. Livingstone, S. Audiences and Publics: When Cultural Engagement Matters for the Public Sphere. – Bristol: Intellect Books, 2005. – 224 p.
7. Fedorov, A. V. Mediaobrazovanie i media kompetentnost' shkol'nikov. – Moskva: Izdatel'stvo MOO VMK, 2007. – 180 s.
8. Gavrilova, N. V. Mediatekst lingvistikasi: nazariya va amaliyot. – Moskva: Flinta, 2018. – 256 s.
9. Qosimova, M., Abdurahmonov, A. Media savodxonlik va axborot madaniyati. – Toshkent: O'qituvchi, 2020. – 210 b.
10. Xodjayev, M. Raqamli pedagogika asoslari: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Innovatsiya, 2021. – 198 b.